

NAZAR ESHONQULNING O'XSHATISHLARDAN FOYDALANISH MAHORATI (“TOBUT” HIKOYASI MISOLIDIDA)

Asatova Gulmira Tohir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich talabasi.

E-mail: gulmiraasatova825@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10938681>

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli ijodkor Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning badiiy asar matnidagi o‘ziga xos qo‘llanilish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Tobut”, o‘xshatish, erkin o‘shatish, turg‘un o‘xshatish, o‘xshatiladigan narsa, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositasi.

NAZAR ESHONQUL'S SKILL IN USING SIMILES (IN THE EXAMPLE OF THE STORY OF "COFFIN")

Abstract. This article highlights the possibilities of the similes used in the story "Coffin" by the well-known artist Nazar Eshanqul in the text of the artistic work.

Key words: "Coffin", simile, free simile, stable simile, object of simile, standard of simile, base of simile, tool of simile.

УМЕНИЕ НАЗАРА ЭШОНКУЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СРАВНЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИИ «ГРОБ»)

Аннотация. В данной статье описываются возможности сравнений, использованных в рассказе «Гроб» известного художника Назара Эшангула в тексте художественного произведения.

Ключевые слова: «Гроб», сравнение, свободное сравнение, устойчивое сравнение, объект сравнения, эталон сравнения, база сравнения, инструмент сравнения.

Bizga ma'lumki, o'xshatishlar tasviriy ifodaning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanib, badiiy asarda ijodkorning o'ziga xos so'z qo'llash imkoniyatlarini ochib beruvchi birliklardan hisoblanadi. O'xshatishlar xususida tadqiqot olib borgan tilshunos M.Mukarramov uning uch asosdan iborat ekanligini, ya'ni o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligini ta'kidlab, o'xshatish vositasini asos sifatida hisobga olmaydi.

O'xshatishlarning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotda tutgan o'rni uning lingvistik tabiati boshqa tasviriy vositalarga qaraganda birmuncha mukammal va atroflicha o'rganilgan. R.Qo'ng'urovning “O'zbek tili stilistikasida ocherklar” (Samarand, 1975), “O'zbek tilining tasviriy vositalari” (Toshkent, 1977), M.Mukarramovning “O'zbek tilida o'xshatish” (Toshkent, 1976), asarlari Y.Is'hoqovning o'zbek klassik adabiyotidagi tashbex san'atini tadqiq etish borasidagi kuzatishlari va ana shunday manbalar sifatida qaraladi. [1, 8-b].

Professor Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilida o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, unga o'xshash bo'lgan narsa yoki o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy yoki formal ko'rsatkichi deb nomlaydi. [3. 5-b]

O'xshatishda ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanilib, ularning biri orqali ikkinchisining belgi-xususiyati to'liq hamda bo'rttirib ko'rsatiladi.

Har bir adibning soʻz qoʻllash mahorati u qoʻllagan original oʻxshatishlar bilan ham belgilanadi. Chunki “dunyoni oʻziga xos tarzda koʻrish oʻxshatish semantikasida aks etadi[2. 4-b]

Nazar Eshonqul ham asarlarida original oʻxshatishlarni qoʻllay olgan ijodkorlardandir.

Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasida nomaʼlum sabablarga koʻra oʻlim tarqalishi va buni oldini olish uchun joʻnatilgan shaxslarning oʻlim sababini topa olmasligi, hatto shaharning ham xaritada tobut shaklida tasvirlanganligi aks etgan.

Maʼlumki, tilimizda oʻxshatishlarning ikki turi mavjud: 1) muallif-individual oʻxshatish yoki erkin oʻxshatish; 2) umumxalq yoki turgʻun oʻxshatishlar.[3,5-b] Nazar Eshonqul ham ushbu hikoyasida erkin oʻxshatishlardan unumli foydalangan. Tadqiqotimizda “Tobut” hikoyasida qoʻllanilgan oʻxshatishlar va ularning badiiy asar matnidagi tutgan oʻrnini yoritishga harakat qildik.

Asarda inson koʻzi toʻrt oʻrinda toʻrt xil oʻxshatishda ifodalangan: *koʻzlar* – *choʻgʻi soʻnayotgan oʻchoqday taftsiz, soʻnib qolgan shamdek yohud suvi qurigan koʻldek, botib boʻlgan quyoshning shafagʻidek, uchib yurgan oʻqdek*. Bunda muallif shahar aholisining koʻzlari tasviriga ham alohida toʻxtalib, nomaʼlum oʻlim sababidan nima qilishini bilmay qolgan insonlarni Yozuvchi *koʻzlar* vositasida ilojisiz, sassiz, hayron-u lol qolgan shahar aholisining qiyofasini chizgan.

Asardagi shahar uchishga chogʻlanayotgan maxluqqa qiyoslanadi. Misolda dek – oʻxshatish vositasi, *maxluq* – oʻxshatish etaloni, *shahar* – oʻxshatish subyektidir. Shaharning yuqoridan koʻrinishi maxluqqa, yaʼni uchishga chogʻlanayotgan maxluqqa oʻxshab koʻrinishi uning tobutga oʻxshashiga ishora qilingan. Masalan, *Serajin yuzlarini bosib ketgan va yonib boʻlgan oʻrmonga oʻxshab qolgan moʻylar aro barqib turgan soliq qiyofalar menga ming yillardan buyon odam qadami yetmagan tashlandiq imoratlarni eslatgan bu qiyofalardan ayovsiz yogʻayotgan jaladek hasrat va mung yogʻilib turar edi*[4, 111], *Ushbu matnda* bir necha oʻxshatish qoʻllanilgan boʻlib, shahar odamlarining nomaʼlum oʻlim sababini tushuna olmayotganliklarini va buni ifodalashda salbiy boʻyoqdor soʻzlar vositasidagi oʻxshatishlarning qoʻllanilayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Shahar odamlari menga qulashini bilgan holda jarga qarab yugurib ketayotgan telbaday taassurot qoldirgan edi [4, 111-b] Ushbu matnda shahar odamlari jarga qarab yugurib ketayotgan telbaga qiyoslanadi. Bunda oʻxshatish subyekti – *shahar odamlari*, oʻxshatish vositasi – *day affiksi*, oʻxshatish etaloni – *telba*. Asar qahramonlarining hayotida shahar odamlari shunday taassurot qoldiradi, chunki bu shaharda oʻlim koʻpayib ketganligidan u insonlar ham xuddi oʻlimini kutayotgandek koʻrinadi shuning uchun ham mazkur oʻxshatish keltirilgan.

Nima boʻlganda ham koʻrganlarim – shahar, oʻlat, xoʻmraygan odamlar, tepakal boshliqlar, mahobatli binolar, hammasi jodu boʻlsa-chi va biz sarobni izlab yurganday roʻyoni kesib yurganday boʻlsak-chi, degan shubxa kuch toʻplab jangga qayta-qayta kirayotgan lashkarday bot-bot bostirib kirar va butun tanamni bexol qilib qoʻyar edi.[4,112-b] Asar qahramonining *shubxalari* – *qayta qayta jangga kirayotgan lashkarday hayolga kirishi* tasvirida oʻxshatish etaloni – *qayta-qayta jangga kirayotgan lashkar*, oʻxshatish vositasi – *-day affiksi*, oʻxshatish subyekti – *shubxalar*. Asar qahramonining hayoliga turfa shubxalar kela boshlaydi, chunki uning koʻziga binolar, shahar aholisi, boshliqlari hatto, shaharning oʻzi ham juda sirli va jodulanganga oʻxshab koʻrinishi tasvirlangan.

Hozir o'lat chiqqandan beri shahrimiz fayzsiz bo'lib qoldi, u paytlar esa shaharni naq xayolning jilvalari deb o'ylardingiz: nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlar, nozik va ehtirosli qalbning parchalari kabi marmarlar, abadiyatni suyar tura oladigan ustunlar, qiz bolaning ko'z yoshiday favvoralar – hammasi go'zal bir tarzda uyg'unlashib ketgandi [4, 113-b] Favvoralar – qiz bolaning ko'z yoshiday, tasvirida o'xshatish etaloni – qiz bolaning ko'z yoshi, o'xshatish vositasi – -day affiksi, o'xshatish subyekti – favvoralar. Asar qahramoni, ya'ni so'zlovchi shahar boshlig'idan o'sha shahar quruvchisi haqida so'ragan vaqtida shahar ilk qurilgan zamonlari juda go'zal ko'ringanligini tasvirlash barobarida favvoralarining shahar chiroyiga chiroy qo'shib turganligini ifodalash maqsadida qiz bolaning ko'z yoshlariday degan chiroyli o'xshatishdan foydalangan.

Shuningdek asarda quyidagi o'xshatishlarning qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin:

Qog'ozlar – pora-pora qilingan yalovga, shahar – uchishga chog'lanayotgan mahluqqa, hasrat qiyofalardan ayovsiz yog'ayotgan jalaga, shahar odamlari – jarga qarab yugurib ketayotgan telbaga, so'zlovchining shubhalari – qayta-qayta jangga kirayotgan lashkarga, favvoralar – qiz bolaning ko'z yoshiga, daraxtlar – so'ppayib qolgan arvoqqa, yurak – gursillab urayotgan qatl nog'oralariga. Ushbu o'xshatishlarning barchasida o'xshatish vositasi sifatida -dek, -day qo'shimchalaridan foydalanilgan. Ular boshqa vositalardan oddiy va soddaligi bilan ajralib turadi. Ayrim o'rinlarda o'xshatish vositasi sifatida o'xshash so'zi ham qo'llanilgan: dimoqqa xuddi boshliqning nafasiga o'xshash ufunat his urilishi, shahar boshlig'ining ovozi farangliklarnikiga o'xshash edi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy o'xshatishlar asarning o'qishililigi ta'minlash bilan birgalikda yozuvchining o'ziga xos so'z qo'llash mahoratini hamda asarning badiiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Каримов С. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. –Самарқанд, 1994. – 139 б
2. Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти журнаси, – № 1, 2013. – Б. 4-6
3. Махмудов Н., Худойберганава. Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изохли лугати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 318 б
азар Ешонқул. Маймун етаклаган одам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004 — 210 б.
5. D.Islamova. Linguistic representation and methods of its expression in artistic text. International Bulletin of Engineering and Technology (IBET). Volume: 3, Issue: 7. – Amerika, 2023. – P. 137-141.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAAAJ&citation_for_view=t18kgDYAAAAJ:ULOm3_A8WrAC
7. D.Islamova. Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'rida qo'llanilgan transpozitiv so'zlarning uslubiy va funksional-semantik xususiyatlari. SamDU “Ilmiy axborotnoma”. – Samarqand: SamDU nashri, 2018. № 4. – B. 99-102.
8. https://www.samdu.uz/upload/content-files/110x8f29IQ7Cs_ilmiy_jurnal.pdf#page=105